

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

2026-yil
15 (34)-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF
THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

“Filologiya va pedagogika” ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

2026-yil
15 (34)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI
Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2026 da nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Farhod Boqiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Azizbek Turdiyev
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari
Farrux Jabborov
"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" – "Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O'zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Anvar Bo'ronov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Iroda Nasimova
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Ma'suma Mo'minova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G'ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyati kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg'ona davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Svetlana Umirova. O'xshatish modellarini korpus asosida aniqlash (Usmon Azim ijodi misolida) 4
Diyora Fayzullayeva. Tarixiy voqelik tasvirida badiiy mahorat va uslub masalalari 7
Yulduz Mustafayeva. O'zbek nasrida badiiy psixologizm genezisi va taraqqiyot tamoyillari 9
Maftuna Rahimova. Sintaksisda mantiqiy strukturalarning voqelanishi 11
Sarvinoz Mardonova. O'zbek tilida leksik birliklarning ma'no taraqqiyoti va semantik o'zgarishlar 14
Komila Saydjanova. Fransuz va o'zbek tillari dialogik diskursida antonimlarning kommunikativ-pragmatik funksiyalari 16
Nigora Shadmanova. Rus va o'zbek tillarida nutq odob-axloqining milliy-madaniy xususiyatlari 18
Oydinoy Turayeva. Ingliz maqollarining strukturaviy va semantik xususiyatlari: kognitiv-pragmatik tahlil 20
Икбола Абдуллаева. Филологические аспекты аксиологии человеческой жизни в книге А.П.Чехова «Остров Сахалин» 22
Нигора Абдурашитова. Историко-культурные истоки и эволюция образа женщины-воительницы в восточных дастанах 25
Шахноза Адилова. Художественная специфика «массовой литературы» 28
Нафиса Матчанова. Метафорические средства в лексико-семантической организации романа Г.Яхиной «Зулейха открывает глаза» 30
Дильбар Расулова. Многокомпонентная стилистическая конвергенция как средство репрезентации субъективного сознания в «Романе с жертвой» И.Абузярова 32
Отабек Усмонов. Косвенные речевые акты как объект современной прагмалингвистики 35
Darmonoy O'rayeva, Nilufar Narzullayeva. "Qon" va "suyak" tushunchalarining badiiy-falsafiy talqin asoslari 37
Mirzohid Muhammadaliyev. Kombayn poreyonimlarining leksik-semantik va nominativ tasnifi 40
Elbek Kurbanov. Sud lingvistik ekspertizasi: haqorat kontekstida implitsit ma'lumotlarni aniqlash mexanizmlari 42
Po'lotshoh Bobokalonov. Nutq buzilishi va nutq izolatsiyasining neyropsixolingvistik modeli 45
Ulbosin Ametova. Xorazm epik she'riyatining shakllanishi va uning nazariy asoslari 47
Nigora Mahmudova. The Concept of Derivation and the Stages of its Development in Linguistics 49
Mubina Mansurova, Surayyo Abidjonova. Modern Linguistics and Culture. Digital English: How Gaming and Social Media Shape Youth Slang 51
Diyora Shamshiyeva. Erkin A'zam asarlaridagi genderga xos murojaat birliklarining lingvopragmatik xususiyatlari 53
Barno Ergasheva. Frans Kafkaning "Qal'a" romanida oneyrik poetika: tush mantig'i va badiiy voqelik 56
Lola Avliyoqulova. Onkologiya sohasidagi tibbiy atamalarning struktur-semantik tahlili 59
Shahlo Sa'dullayeva. O'qituvchi obrazi arxetip sifatida (o'zbek va turk nasrlari misolida) 61
Gulasal Xayrulloyeva. Turli diskurslarda modallikning funksional-pragmatik xususiyatlari 64
Dilorom Yusupova. Arab tilidagi so'roq gaplarning yoritilishi: zamonaviy tilshunoslarning qarashlari 66
Санобар Уллиева. Роль фонетических языковых единиц в создании художественного образа 69
Яшин Нишанов. Субконцепт мудрость как составная часть концепта старость 71
Xilola Fazullayeva. Raqamli media muhitida infoteynment fenomeni: jurnalistik etika va transformatsiya jarayonlari 73
Nilufar Ibragimova. Alisher Navoiy musaddasida irfoniy-falsafiy tafakkur va uning badiiy ifodasi 75
Sadinura Ruzimurodova. O'zbek adabiy tili va qipchoq lahjasida konsonant alternatsiya hodisasining ortologik talqini 78
Mashxuraxon Burxanova. Tilning perseptual va konseptual paradigmasi 80
Dilfuza Avazova. Mushtarak obrazlar tahlili (Alisher Navoiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat va Abdulla Oripov ijodi misolida) 82
Yashin Azizov. O'zbek tilida metateza jarayoni: fonologik tadqiqot 84
Nursulton Eshmonov. Qarindoshlik atamalari tizimida etnolingvistik omillar 87
Gulxayo Osomiddinova. Mashrab obrazining diniy-tasavufiy talqini 91
Aziza Navro'zova. Realiyalarni tasniflashning lingvokulturologik muammosi 94
Olima Safarova. Farmatsevtik terminologiya va diskurs: lingvistik, semantik va kommunikativ xususiyatlar 97
Jasmina Axmedova. Buyuk Britaniyada ayollar matbuotining vujudga kelish zarurati 99
Surayo Akramova. Badiiy matnda lokutiv qatlamning poetik semantikani shakllantirishdagi o'rni (Jamol Kamol she'riyati misolida) 101
Intizor Umarova. Intermatnlilikni shakllantiruvchi vositalar: allyuziya, pretsedentli onimlar va kinoya 104
Iqbola Jahongirova. Ijtimoiy media diskursida multimodal dezinformatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari 106
Dildora Ibrogimova. Frazeologizmlarning dramalarda qo'llanishi va uning badiiyatga ta'siri 108
R.Kudiyarova. Saylovboy Jumag'ulov asarlarida foydalanilgan folklor obrazlar 112
Rayhona Raxmatova. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida qahramonlar taqdiri 114

Feruza Raxmonberdiyeva. Ingliz va o'zbek tillarida tashqi qiyofa va xarakterni ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari ... 117
Bunyodbek Sotvoldiyev. Hakerlar va kiberxavfsizlik sohasiga oid sleng birliklarining lingvistik xususiyatlari ... 119
Surayyo Akramova. Jamol Kamol she'riyatida til shaxsiyati va muallif pozitsiyasining ifodalanishi ... 121
Ma'mura Narziyeva. Abdulla Oripov she'riyatining lingvokulturologik xususiyatlari ... 123
Dilnavoz Yusupova. Ta'lim tizimida Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash ... 125
Anora Hikmatova. Erkin A'zamning "Chapaklar va chalpaklar" asarida etnomadaniy kodlar va estetik modusning lingvopoetik hamda lingvomadaniy tadqiqi ... 128
Anvar Jo'rayev. "Roqim devoni" matnining shakllanish tarixi: qo'lyozma va bayoz manbalari munosabati ... 130
Gulchehra Mustafayeva. Ingliz va o'zbek tillaridagi go'zallik bilan bog'liq o'xshatishlar: o'ziga xoslik va umumiylik ... 132
Nodira Sayfiddinova. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida retrospektiv usulning ahamiyati ... 134
Surayyoxon Ibroximova. Futuvvatnomalarning janriy xususiyatlari: shakl, mazmun va poetika ... 136
Dilafruz Xaydarova. Ispan diplomatik terminologiyasining o'zbek va rus tillariga tarjimasida kommunikativ-pragmatik moslashuv ... 139
Shahlo Xasanova. Harbiy diskursda buyruq va murojaat strategiyalarining pragmatik xususiyatlari ... 142
Sultonposhsho Sotiboldiyeva. Yangi O'zbekiston obrazining xalqaro media matnlarida shakllanishi: lingvistik va kommunikativ xususiyatlar ... 144
Dilora Pardayeva. Ingliz va o'zbek maqol hamda matallarida ambivalent mazmunning voqelanishi ... 147
Surayyo Jo'rayeva. Koinot, tabiat va inson: Isajon Sulton nasrida ilohiy yaratilish va borliq harakati ... 150
Fakhriddin Yarmanov. Analyse comparative des unités phraséologiques en français et en ouzbek ... 152
Laziza Xudayberdiyeva. Nutqiy yetishmovchiliklar: duduqlanish va unung sabablari ... 156
Yulduz Nafasova. O'zbek tilida presuppozitsiya turlarining tasnifi va ifodalanish vositalari tadqiqi ... 160
Nilufarxon Maxmudova. O'zbek xalq topishmoqlarida antropomorf metaforalarning voqelanishi ... 162
Fotima Ismoilova. Isajon Sultonning tarixiy roman yaratishdagi ijodiy mahorati ... 164
Nodira Qurbonova, Maftuna XAmdamova. Recurrent Themes and Stylistic Strategies in the Fiction of Joyce Carol Oates ... 167
Svetlana Umirova. Usmon Azim mualliflik korpusi uchun ekstralingvistik teglar modelini ishlab chiqish masalasi ... 170
Sarvinoz Umirova. Linguistic Innovations in Youth Language on Social Media: a Paralinguistic Perspective ... 175
Gulshoda Avloyorova. Milliy mentalitet va bolalar adabiyoti estetikasi: G'arb va Sharq paradigmalarining qiyosiy tahlili ... 178
Nilufar Ko'chimova. BMT nutqlarida "tinchlik" konseptining lingvopragmatik reprezentatsiyasi ... 181
Diyora Abdujalilova. Odob-axloq masalasi Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijoli talqinida ... 182

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Madina Abduqodirova. Adabiyot darslarida sinf o'quv jarayonini boshqarish kompetensiyasining nazariy-metodik asoslari ... 188
Мадина Исмагилова. Методические основы предупреждения интерференционных ошибок при изучении категории числа русского языка в узбекской школе ... 190
Шахризода Келдиёрова, Мохларойим Келдиёрова. Генеративный искусственный интеллект и иллюзия компетентности в обучении английскому языку: проблема подмены самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов ... 193
Матлуба Мирханова. Функционально-коммуникативный подход к изучению сложноподчинённых предложений на уроках русского языка ... 195
Муштарийбону Ахмедова. Эффективные формы организации уроков рки в классах с узбекским языком обучения в начальной школе ... 197
Diyora Baxramova. Pedagogical and Methodological Features of Developing Sociolinguistic Competence of Higher Education Students ... 200
Lutfiya Erkinova. Tpack and PBL as Modern and Effective Tools to Implement in Teaching ... 204
laylo odilova. Irony and Sarcasm in Uzbek and English Literary Discourse: a Comparative Pragmatic and Stylistic Study ... 206
Sayyora Islomkhodjayeva. Promoting English Language Development in Military Higher Education Through Blended Instruction ... 209
Solijon Azizov. Uch komponent – bir maqsad: blended ta'lim yozuv kompetensiyasini takomillashtirishning yangi modeli ... 214
Nigora Saidova. Neyropedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ... 218
Dilsora Shodmonova. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida sog'lom turmush tarzi kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik mohiyati ... 221
Nargiza Musulmanova. Elektron ta'lim resurslari asosida talabalar nutqiy savodxonligini o'quv jarayoniga integratsiya qilish ... 223
Dilobar Qayumova. The Role of Audio Dictionaries in Developing Pronunciation Competence ... 228
Muazzam Otabaeva. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari ... 230
Ulug'bek Yunusov. O'smirlarda qadriyatlar shakllanishining psixo-pedagogik xususiyatlari ... 232

Solijon AZIZOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

UCH KOMPONENT – BIR MAQSAD: BLENDED TA'LIM YOZUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MODELI

Annotatsiya. Mazkur maqolada blended ta'limning mazmun-mohiyati va asosiy pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, uning bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarining funksional integratsiyasi sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Ushbu komponentlarning yagona pedagogik maqsad asosida o'zaro bog'lanishi yozuv jarayonini izchil tashkil etish, talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirish, individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish hamda qayta aloqadan samarali foydalanish imkonini yaratishi asoslanadi.
Kalit so'zlar: blended ta'lim, oflayn ta'lim, onlayn ta'lim, mustaqil ta'lim, yozuv kompetensiyasi, funksional integratsiya, bo'lajak ingliz tili mutaxassislari, pedagogik model.
Annotation. This article analyzes the essence and key pedagogical opportunities of blended learning and examines it as the functional integration of offline, online, and independent learning aimed at improving the writing competence of future English language specialists. The study substantiates that the interconnection of these components within a unified pedagogical goal enables the systematic organization of the writing process, promotes students' independent learning activities, supports the consideration of individual learning needs, and facilitates the effective use of feedback.
Keywords: blended learning, face-to-face learning, online learning, independent learning, writing competence, functional integration, prospective English language specialists, pedagogical model.
Аннотация. В данной статье анализируются сущность и основные педагогические возможности смешанного обучения, которое рассматривается как функциональная интеграция офлайн-, онлайн- и самостоятельного обучения, направленная на совершенствование письменной компетенции будущих специалистов английского языка. Обосновывается, что взаимосвязь данных компонентов в рамках единой педагогической цели обеспечивает последовательную организацию процесса письма, активизацию самостоятельной деятельности студентов, учет их индивидуальных образовательных потребностей и эффективное использование обратной связи.
Ключевые слова: смешанное обучение, очное обучение, онлайн-обучение, самостоятельное обучение, письменная компетенция, функциональная интеграция, будущие специалисты английского языка, педагогическая модель.

Bugungi global dunyoda axborot tarkibi va miqdor ko'lami hayratlanarli sur'atlarda o'sishda davom etmoqda, natijada XXI asrda bo'lajak mutaxassis kadrlarning egallashi zarur bo'lgan ko'nikmalar va bilimlar to'xtovsiz o'zgarib bormoqda. Xususan, amerikalik olimlar A.Kollinz va R.Xalversonning ta'kidlashicha, biz "universal maktab ta'limi" davridan "umr bo'yi ta'lim" davriga, ya'ni global dunyodagi yangi kontekstlar talablariga javob berish maqsadida uzluksiz o'qib-o'rganish davriga o'tmoqdamiz [1].

Misol uchun, tashkiliy ta'lim va samaradorlikka yo'naltirilgan xalqaro tahlil markazi "Internet Time Alliance" vakili J.Kross norasmiy ta'lim ham bundan mustasno emasligini ta'kidladi, aniqrog'i, bizning **o'rganish faoliyatimizning** 80 foizi auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladi [2: 17]. Shuningdek, **so'nggi yillarda** zamonaviy ta'lim kontekstida *"blended learning", "hybrid learning" va "flipped learning"* kabi atamalar ko'zimizga ko'p tashlanmoqda. Masalan, Y.Yaroslavova blended ta'limni gibrid format sifatida e'tirof etib, unda onlayn darslar oflayn (auditoriya) o'qitish shakllari bilan to'ldirilishini nazarda tutadi [3: 267].

Bugungi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar nafaqat ta'lim mazmuni, balki talabaning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash usullarining ham yangilanishini taqozo etadi. An'anaviy ta'limda talaba asosan tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi bo'lsa, raqamli ta'lim muhitida u axborotni mustaqil izlash, saralash, baholash va undan maqsadli foydalanishga qodir faol ishtirokchiga aylanadi. Shu bois raqamli texnologiyalarni ta'limga joriy etish faqat o'quv materiallarini elektronlashtirishga emas, balki talabaning o'quv faoliyatini faollashtirish, mustaqil qaror qabul qilish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Avvalambor, blended, oflayn, onlayn (masofaviy) va mustaqil ta'lim shakllari o'rtasidagi muhim farqlarni qayd etish lozim. Oflayn ta'lim an'anaviy metod va vositalar bilan cheklanib, barcha talabalarning individual o'zlashtirish darajasini muntazam nazorat qilish va ularga mos ta'lim muhitini yaratishda cheklangan imkoniyatga ega. Blended ta'lim esa turli metod va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz monitoring qilishga, individual yondashuvni ta'minlashga hamda o'z vaqtida elektron qayta aloqa berishga imkon yaratadi. Shuningdek, u oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarining integratsiyasini ta'minlab, talabalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshiradi.

Ikkinchidan, onlayn ta'lim masofaviy tashkil etilishi, pedagogik jarayon ishtirokchilarining vaqt va makondagi tarqoqligi bilan bog'liq muammolarga ega. Uning moslashuvchanlik, axborotga keng kirish, interaktivlik, asinxronlik va ommaviylik kabi afzalliklari mavjud bo'lsa-da, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi bevosita muloqot hamda pedagogik o'zaro ta'sirning cheklanganligi uning asosiy zaif tomonlaridan biridir. Blended ta'lim esa an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarini integratsiyalash orqali bevosita muloqotni tiklash, murakkab o'quv materiallarini oflayn mashg'ulotlarda tushuntirish va talabalarning mustaqil ta'limdagi qiyinchiliklarini bartaraf etish imkonini beradi [4: 48–49].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mazkur ta'lim shakllarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish har doim ham metodik jihatdan to'g'ri emas, chunki ularning har biri turli pedagogik vazifalarni bajaradi. Yuzma-yuz mashg'ulotlar bevosita muloqot va tezkor tushuntirishni, onlayn ta'lim vaqt va makon jihatidan moslashuvchanlikni, mustaqil ta'lim esa individual ehtiyoj va o'zlashtirish sur'atiga mos rivojlanishni ta'minlaydi. Shu bois blended ta'limning asosiy ahamiyati ushbu shakllarni bir-biri bilan almashtirishda emas, balki ularning imkoniyatlarini yagona ta'lim maqsadi doirasida uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, mustaqil ta'lim talabalarda o'z-o'zini tartibga solish, muammolarni hal qilish, axborot savodxonligi va

moslashuvchanlik kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Biroq chet tillarini o'qitish amaliyotida talabalarning mustaqil faoliyati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Blended ta'lim esa onlayn resurslar, hamkorlikdagi faoliyat va mustaqil ta'limni integratsiyalash orqali talabalarning mustaqil izlanishi va o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Shuningdek, turli raqamli vositalar, multimediali taqdimotlar, interaktiv simulyatsiyalar va onlayn munozaralar talabalarning o'z-o'zini boshqarish hamda mavzularni mustaqil va chuqur o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5: 859].

Mustaqil ta'limning samaradorligi talabaning o'z o'quv faoliyatini boshqara olish darajasi bilan chambarchas bog'liq. Talaba aniq maqsad qo'yish, vazifalarni rejalashtirish va natijalarni muntazam baholash ko'nikmalariga ega bo'lmasa, raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalana olmaydi. Shu bois blended ta'limda mustaqil faoliyat nazoratsiz jarayon sifatida emas, balki o'qituvchining aniq yo'riqnomalari, topshiriq mezonlari va baholash mexanizmlari asosida pedagogik jihatdan yo'naltirilgan individual o'quv faoliyati sifatida tashkil etilishi lozim.


Tarixga nazar tashlasak, "blended ta'lim" atamasi va uni tavsiflovchi terminologiya 90-yillarning oxirida, Internet kirib kelgan davrning boshida paydo bo'lgan. Keyinchalik esa, o'quv adabiyotlarida *"blended ta'lim"* (blended learning), *"gibrid ta'lim"* (hybrid learning), shuningdek, *"texnologiya vositasida o'qitish"* (technology-mediated instruction), *"web texnologiya vositasida o'qitish"* (web-enhanced instruction) va *"aralash rejimli o'qitish"* (mixed-mode instruction) kabi [6: 18] bir nechta unga o'xshash atamalar paydo bo'ldi. Binobarin, aynan shu vaqt oralig'ida "blended ta'lim" atamasi aniq ta'rifga ega emas edi, ammo 2006-yilda amerikalik professorlar K.Bonk va Ch.Grem boshchiligidagi "Blended ta'limga oid qo'llanma" *("The Handbook of Blended Learning")* nomli asarda quyidagicha ta'rif keltirildi: "Blended ta'lim oflayn ta'lim bilan kompyuter vositasidagi – onlayn ta'lim shakllarini birlashtiradi". Ushbu kombinatsiya doirasida ular turli xil vositalar va ta'lim usullari to'rt o'lchov – *makon* (oflayn, virtual yoki o'zaro taqsimlangan), *vaqt* (sinxron yoki asinxron), *ishonchlilik* (ko'plab maqsadlarni qamrab olgan yoki faqat matn almashinuvidan iborat) va *insoniylik*ning (mahsuldor va oflayn shakldagi o'zaro munosabatlar asosiga quriluvchi ta'lim jarayoni) har birida davomiylik bo'yicha o'zgarishlar bo'lishini taklif qilishdi [7: 5].

Terminologik xilma-xillik blended ta'lim mazmunini belgilashda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bunda asosiy e'tibor atamaning shakliga emas, balki uning doirasida tashkil etilayotgan ta'limiy munosabatlarga qaratilishi lozim. Yuzma-yuz va raqamli faoliyat shakllarining shunchaki yonma-yon mavjudligi ularning pedagogik integratsiyasini anglatmaydi. Blended ta'limda ushbu komponentlar o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan va yagona didaktik natijaga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Aynan shu jihat uni ta'lim jarayonida AKTdan oddiy foydalanish amaliyotidan farqlaydi.

Umuman olganda, blended ta'lim an'anaviy va onlayn ta'lim shakllarining integratsiyasi sifatida talqin qilinadi. Biroq mazkur tadqiqotda bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirish uchun uchta shakl birlashtiriladi: yuzma-yuz (oflayn) mashg'ulotlar, onlayn hamkorlikdagi ta'lim va elektron manbalar asosidagi mustaqil ta'lim. Bunday yondashuvning asosiy sababi shundaki, blended ta'limning ikki komponentli talqinlarida onlayn va mustaqil ta'lim faoliyatlari ko'pincha bir tushuncha doirasida birlashtiriladi yoki ulardan biri yetarlicha hisobga olinmaydi [8: 47]. Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'ilishi mumkin – blended ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi? Ushbu savolga javob sifatida quyidagi jihatlarni keltirib o'tishimiz mumkin: u

1) pedagogik aspektlarga boy;
2) bilim olishga ochiq;
3) ijtimoiy o'zaro aloqa;
4) shaxsiy agent;
5) xarajat borasida tejamkor;
6) takrorlashga oson [9];
7) takomillashgan pedagogika;
8) keng qamrovli va moslashuvchan;
9) oshirilgan sarf-xarajat uchun samarador [10].

Vaholanki, blended ta'lim o'qituvchiga talabalarning individual o'zlashtirish sur'atiga mos faoliyat tashkil etish imkonini beradi. Undagi integratsiya esa talabalar bilimini faollashtirishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq faoliyatlarni nazarda tutadi. Aynan shu xususiyatlar blended ta'limni AKTdan oddiy foydalanish amaliyotidan farqlaydi. Biz ham mazkur ta'riflarga tayangan holda, quyidagi mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik: *"Blended ta'lim – bu o'zida oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllari imkoniyatlarining mutanosiblikdagi taqsimotiga asoslangan, o'qituvchi va talabalarning muayyan amaliy natijalarga erishishlarida texnologiyalardan maqsadli hamda samarali foydalanishlariga yo'naltirilgan murakkab innovatsion ta'lim shaklidir"* (Quyidagi rasmga qarang):



Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan blended ta'lim modeli

Mazkur ta'rifda uchta ta'lim shaklining ajratib ko'rsatilishi tasodifiy emas. Chunki, oflayn va onlayn faoliyat talabaning mustaqil o'quv faoliyatini to'liq ifodalay olmaydi: elektron muhitdagi hamkorlikdagi faoliyat mazmunan mustaqil ta'limdan farqlanadi. Mustaqil ta'limda esa talaba o'z bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash, zarur materiallarni tanlash, topshiriqlarni bajarish va natijalarni baholashda asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda blended ta'limning oflayn, onlayn va mustaqil komponentlarga ajratilishi tashkiliy hamda pedagogik zarurat sifatida qaraladi.

Aslini olganda, blended ta'lim oliy ta'limda o'qituvchilarning oflayn va onlayn ta'lim o'rtasidagi *"o'zaro murosa"*ni topishga bo'lgan istak-xohishi natijasida yuzaga keldi [11]. Blended ta'lim oliy ta'lim miqyosida taraqqiy etdi, ammo M.Oliver va K.Trigvell o'z ilmiy izlanishlarida ayni ta'limga oid umumiy konsepsiyani tanqid qilib, bu atamani "noto'g'ri aniqlangan va nomuvofiq ishlatilgan" va blended ta'lim bilan bog'liq nazariya

"mujmal yoki ortiqcha" bo'lgan usullarda tatbiq etilganligini qayd etishdi [12: 24]. Shu bois mazkur tadqiqotda "aralash ta'lim" o'rnida ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanilayotgan "blended ta'lim" atamasidan foydalanishga qaror qilindi. Biroq ta'lim shakllari o'rtasidagi muvozanat ularning vaqt jihatidan teng taqsimlanishini anglatmaydi, chunki muayyan pedagogik vazifaga ko'ra ulardan biri ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin. Demak, blended ta'lim dizaynining asosiy vazifasi ta'lim shakllarini teng miqdorda birlashtirish emas, balki o'quv maqsadiga eng mos faoliyat shaklini tanlashdan iboratdir.

Tarixga nazar tashlasak, chet tilini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarda individual kognitiv rivojlanishga e'tibor qaratilib, til o'qitish va o'rganish amaliyotidagi muhitga bo'lsa e'tibor berilmadi. Blended ta'lim doirasida esa muhit dizaynning diqqat markazida bo'ladi, chunki u o'rganilayotgan til va madaniyatga til o'rganuvchilar – talabalarning ijtimoiylashuv jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiladi [13]. Binobarin, texnologiya kamida ikkita paradigmaga – ikkita juda farqli tushunchaga egadir: "texnologiya vosita sifatida" va "texnologiya ekologiya sifatida".

Ma'lumot o'rnida qayd etishimiz joizki, *"ta'lim ekologiyasi"* atamasi ilk bor fanda amerikalik tadqiqotchi J.S. Braun tomonidan qo'llanilgan [14]. Zero, vosita sifatidagi paradigma barchaga birdek ma'lum, ammo ekologiya sifatidagi paradigma quyidagicha izohlanishi mumkin: *"Texnologiyalar inson tomonidan dasturlashtirilgan dasturiy ta'minot va ishlab chiqilgan apparat vositalarining gibridlari bo'lib, ular auditoriya ichida va tashqarisida sinxron va asinxron harakatlarning integratsiyalashuviga kiritilishi va fazoviy tartibga solish, multimodal matnlar va talabalar guruhlari bilan o'zaro bog'lanishi mumkin"* [13: 74].

Umuman olganda, blended ta'lim muhitida dizayn yoki undagi texnologiyalardan foydalanish jarayonini quyidagicha izohlashimiz mumkin: *"...an'anaviy va onlayn texnologiyalarning strategik hamda o'ziga xos ekologiyasi bilan chet tilini o'rganish maqsadida jamoaviy muhitni hamkorlikda yaratish, isloh etish va osonlashtirishning uzluksiz jarayoni"* [13: 90]. Mazkur yondashuv ta'lim texnologiyalariga munosabatni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki texnologiyaning o'zi ta'lim sifatini avtomatik ravishda oshirmaydi, uning samaradorligi esa qanday maqsad va metodik sharoitda qo'llanilishiga bog'liq. Shu sababli blended ta'limda asosiy masala ko'p sonli texnologiyalarni tanlash emas, balki ular yordamida talabaning bilish va amaliy faoliyatini samarali tashkil etishdir. Bunda texnologiya ta'lim jarayonining markazi emas, balki aniq pedagogik maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, germaniyalik mutaxassis P.Noymayer quyidagicha muhim izohni keltirib o'tdi: *"Blended ta'lim dizaynining eng muhim maqsadi individual o'quv subyektlari, kontekstlari va maqsadlari uchun o'rganish usullarining eng samarali va foydali kombinatsiyasini topishdan iborat. Undagi asosiy e'tibor "an'anaviy"dan farqli ravishda "to'g'ri" yoki "eng yaxshi", "innovatsion" usulni tanlash emas; balki bir butunlikda ishlaydigan ta'lim muhitini yaratishdir"* [15: 164–165]. Buning natijasi sifatida esa blended ta'limning turli xil temperamentli talabalarga o'quv materiallarini teng darajada muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarida va turli xil o'quv faoliyati shakllari bilan bog'liq holda o'zlarini amalda namoyon qila olish imkoniyatlarini taqdim etishida deb aytishimiz mumkin.

Blended ta'lim muhitining muhim afzalliklaridan biri barcha talabalar uchun bir xil ta'lim yo'lini belgilash zaruratining kamayishidir. An'anaviy auditoriya sharoitida o'qituvchi ko'pincha guruhning umumiy o'zlashtirish sur'atiga moslashadi, natijada ayrim talabalar rivojlanish imkoniyatidan mahrum bo'lishi, boshqalari esa mavzuni yetarli darajada o'zlashtirmasdan keyingi bosqichga o'tishi mumkin. Blended ta'lim esa o'quv materiallariga takroran murojaat qilish, individual topshiriqlarni bajarish va o'zlashtirish sur'atini boshqarish imkonini yaratib, ta'lim jarayonining individuallashtirilishiga xizmat qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilindi. Jumladan, unda oliy ta'lim tizimini (1) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash; (2) ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; (3) ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish kabi muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Respublika OTMlarida mazkur chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi istiqbolda elektron ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy tadqiqotlar va nashrlar hajmining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa bitiruvchilar va yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligi uchun muhim bo'lgan raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda ular vositasida yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi [16: 134]. Bunday sharoitda raqamlashtirish jarayonini faqat texnik infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'lash yetarli emas. Raqamli vositalarning mavjudligi ularning pedagogik jihatdan samarali qo'llanilishini kafolatlamaydi, buning uchun o'qituvchi va talabalarning ulardan foydalanish madaniyati, vositalarni o'quv maqsadiga muvofiq tanlash va raqamli muhitda hamkorlikni tashkil etish ko'nikmalari muhimdir. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda texnologiyalar til o'rganish mazmuni bilan bevosita bog'lanishi, aks holda esa ta'lim sifatini emas, faqat uning tashqi shaklini yangilashi mumkin.

Shu bilan birga, blended ta'lim imkoniyatlarini mutlaq afzallik sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli emas, chunki uning samaradorligi amalga oshirish sharoitlariga bevosita bog'liq. Texnik imkoniyatlar, o'qituvchining metodik va raqamli kompetensiyasi, talabalarning mustaqil ishlashga tayyorligi hamda ta'lim mazmunining to'g'ri loyihalashtirilishi uning natijadorligini belgilaydi. Shu sababli blended ta'limning muammoli jihatlarini oldindan aniqlash va pedagogik jihatdan hisobga olish zarur, jumladan, uning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda quyidagi cheklovlarni ham qayd etish lozim:

- *Ta'lim vositalaridan samarasiz foydalanish resurslarning behuda sarflanishiga olib kelishi.* O'qituvchi va talabalar raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalana olmasa yoki tanlangan vositalar o'quv vazifalariga mos kelmasa, bu

ta'lim samaradorligini oshirish o'rniga vaqt va resurslarning samarasiz sarflanishiga sabab bo'lishi mumkin.

• *Talabalarning texnologiyalar bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasligi blended ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin*. Bunday sharoitda o'qituvchi talabalarni raqamli ta'lim muhitida ishlashga yo'naltirishi, ularga zarur ko'mak berishi va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga rag'batlantirishi lozim.

• *Yuqori texnologiyalardan foydalanish nisbatan ko'p xarajatlarni keltirib chiqarishi*. Umuman olganda, qurilmalar va infratuzilma vositalari kabi blended o'quv dasturlari uchun ta'lim texnologiyalarini xarid qilish qimmatga tushishi mumkin. Bu, ayniqsa, chet tili ta'limidan bir nechta guruhlar yoki bosqichlar kesimida ko'plab talabalar bilan dars mashg'ulotlarini olib boruvchi o'qituvchining mehnat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin, biroq bu faqat qisqa muddatli xarajatlar ekanligini ham qayd etishimiz lozim.

• *O'qituvchidan nafaqat darslarga tayyorgarlik ko'rish, balki elektron o'quv materiallarini yaratish ham talab etiladi*. Blended ta'limda uchta ta'lim shaklini uyg'unlashtirish, talabalarning o'zlashtirish darajasi, qobiliyati hamda xato-kamchiliklaridagi individual farqlarni hisobga olish o'qituvchining metodik va vaqt jihatidan qo'shimcha mehnatini talab qiladi.

• *Texnik muammolarning ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi*. Noto'g'ri texnologiyaning tanlanishi yoki undan foydalanishda yuzaga keladigan texnik nosozliklar ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda o'qituvchining raqamli savodxonligi muhim bo'lib, u yuzaga kelgan muammolarni tezkor hal qilish yoki zarur hollarda muammoli texnologiyani samaraliroq vosita bilan almashtira olishi lozim [17].

Xulosa shuki, nazariy tahlillar blended ta'lim samaradorligi uning komponentlarini shunchaki birlashtirishda emas, balki yagona pedagogik maqsad asosida funksional integratsiyalashuvida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Tadqiqotda blended ta'lim bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining yozuv kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan oflayn, onlayn va mustaqil ta'lim shakllarining integratsiyasi sifatida qaraldi. Ushbu komponentlarning o'zaro bog'liqligi yozuv jarayonini izchil tashkil etish, mustaqil ishlash, qayta aloqa olish va kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur metodik sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Collins A., Halverson R. Rethinking Education in the Age of Technology: The Digital Revolution and Schooling in America. – New York: Teachers College Press, 2009.
2. Cross J. Informal Learning: Rediscovering the Natural Pathways That Inspire Innovation and Performance. – Hoboken, New Jersey: Pfeiffer, 2006.
3. Жарина О.А., Шулепова А.Д., Борисенко В.А., Самофалова М.В., Шулепов А.А. Смешанное обучение деловому английскому языку студентов неязыковых специальностей: модель «перевернутый класс» // Перспективы науки и образования, 2021, № 1(49). – С. 265–275.
4. Фандей В.А. Теоретико-прагматические основы использования формы смешанного обучения иностранному (английскому) языку в языковом вузе: Дисс. … канд. пед. наук. Москва, 2012.
5. Pramesworo I., Fathurrochman I., Sembing D., Bangkara B., Sudrajat D. Relevance between Blended Learning and Students' Independent Learning Curriculum: An Overview of Digital Age Education, Student and Teacher Engagement, Technological Resources // Jurnal Hasil Penelitian dan Kajian Kepustakaan di Bidang Pendidikan, Pengajaran dan Pembelajaran,2023, № 9(3). – P. 858–869. 10.33394/jk.v9i3.8320.
6. Андреева Н.В., Рождественская Л.В., Ярмахов Б.Б. Шаг школы в смешанное обучение. Москва: Рыбаков Фонд, 2016.
7. Bonk C.J., Graham C.R. (Eds.). Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
8. Блинов В.И., Есенина Е.Ю., Сергеев И.С. Модели смешанного обучения: организационно-дидактическая типология // Высшее образование в России, 2021, № 30(5). – С. 44–64.
9. Osguthorpe R., Graham C. Blended Learning Environments: Definitions and Directions // Quarterly Review of Distance Education, 2003,№ 4. – P. 227–233.
10. Graham C., Allen S. Designing Blended Learning Environments // Encyclopedia of Distance Learning. 2nd ed. – Hershey: IGI Global, 2009. – P. 562–570.
11. Welker J., Berardino L. Blended Learning: Understanding the Middle Ground Between Traditional Classroom and Fully Online Instruction // Journal of Educational Technology Systems, 2005, № 34(1). – P. 33–55.
12. Oliver M., Trigwell K. Can Blended Learning Be Redeemed? // E-Learning and Digital Media, 2005, № 2(1). – P. 17–26.
13. Hinkelman D. Blending Technologies in Second Language Classrooms. – London: Macmillan Publishers, 2018.
14. Brown J. Growing Up Digital: How the Web Changes Work, Education, and the Ways People Learn // Change Magazine, 2000. March/April. – P. 11–20.
15. Neumeier P. A Closer Look at Blended Learning – Parameters for Designing a Blended Learning Environment for Language Teaching and Learning // ReCALL, 2005, № 17(2). – P. 163–178.
16. Медведева Н.Е., Колесникова Н.Л. Совершенствование навыков иноязычной письменной речи в контексте смешанного обучения // Преподаватель XXI век. – 2022. – № 2(1). – С. 133–144.
17. Инфоурок. Плюсы и минусы смешанного обучения. https://infourok.ru/plyusi-i-minusi-smeshannogo-obucheniya-1939964.html?utm_source=chatgpt.com.